RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Jo‘raxojayeva Dildora Odilovna
Guliston Davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: joraxojayevadildora@gmail.com

Anatatsiya. Ushbu maqola raqamlashtirish davrida ta’lim sohasiga joriy etilayotgan innovatsion yondashuvlar va zamonaviy tendensiyalarni tizimli va keng qamrovli tarzda tahlil qiladi. Unda nazariy manbalar, sohadan olingan amaliy misollar hamda zamonaviy tadqiqotlar natijalari uyg‘unlashtirilib, raqamlashtirishning ta’lim tizimidagi transformatsion ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlari: raqamlashtirish, innovatsion pedagogika, ta’limning xalqarolashuvi va globallashuvi, fintek, inkubator, akselerator, hakaton.

Abstract: This article provides a systematic and comprehensive analysis of innovative approaches and modern trends being implemented in the field of education during the digitalization era. It integrates theoretical sources, practical examples from the field, and findings from contemporary research to highlight the transformative impact of digitalization on the education system.

Keywords: digitalization, innovative pedagogy, internationalization and globalization of education, fintech, incubator, accelerator, hackathon.

Аннотация: В данной статье системно и всесторонне анализируются инновационные подходы и современные тенденции, внедряемые в сферу образования в эпоху цифровизации. На основе теоретических источников, практических примеров и современных исследований раскрывается трансформационное влияние цифровизации на образовательную систему.

Ключевые слова: цифровизация, инновационная педагогика, интернационализация и глобализация образования, финтех, инкубатор, акселератор, хакатон.

Raqamlashtirish - bu axborotni qog‘ozdagi hujjat, ovoz yoki tasvir kabi shakllardan kompyuter tomonidan tushuniladigan va qayta ishlanadigan raqamli formaga aylantirish jarayonidir. Mazkur jarayon, ayniqsa, pandemiya davridan so‘ng tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Chunki o‘sha davrda onlayn darslar, turli kurslar va masofaviy ta’lim keng yo‘lga qo‘yildi. Shundan so‘ng texnologiyalarni, xususan raqamlashtirishni har bir sohada

rivojlantirishga alohida e’tibor berila boshlandi.Pedagogika sohasini olaylik: boshlang‘ich ta’lim xonalarida zamonaviy texnika vositalari, xususan kompyuter va televizorlardan unumli foydalanish o‘qituvchidan yuqori malaka va mahoratni talab etadi. O‘quvchini darsga qiziqtira oladigan innovatsion metodlardan foydalanish esa bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Kelgusi yillarda ta’limni rivojlantirish yo‘lida muhim qadam sifatida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari (AT) sohasini chuqur o‘rganish va keng rivojlantirish bugungi avlod oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Chunki kompyuter va noutbuk kabi texnik vositalardan samarali foydalanishni bilgan inson har qanday sohada o‘z o‘rnini topa oladi. Nazariy jihatdan yaxshi pedagog bo‘lishning o‘zi yetarli emas, texnologiyalarni ham mukammal o‘zlashtirish zarur.

Hozirgi kunda ta’lim sohasining raqamlashtirilishi jarayoni uni tezkor va mustahkam rivojlanish sari yetaklamoqda. Ta’limning xalqarolashuvi va globallashuvi. Ta’limning xalqarolashuvi - bu boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish, talabalar va o‘qituvchilarning ilmiy loyihalarda qatnashib tajriba almashishi orqali amalga oshadi. Misol uchun, Erasmus+ dasturi talabalarga xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘qish va yangi bilimlar orttirish imkonini beradi.

Globallashuv esa dunyo miqyosida ta’lim standartlarini uyg‘unlashtirish jarayonidir. Tarixga nazar tashlasak, 1999-yil 19-iyunda Italiyadagi Bolonya shahrida 29 ta Yevropa davlati ta’lim vazirlari tomonidan imzolangan Bolonya deklaratsiyasi bu jarayonning poydevori bo‘ldi. Shu asosda kredit-modul tizimi ham keng rivojlandi. Bugun esa bu tizim ko‘plab universitetlar va institutlar uchun ta’limda yangi bosqichni belgilab bermoqda. Agar biz yoshlar zamonaviy texnologiyalarni puxta o‘rgansak, yangi ochilayotgan oliy ta’lim muassasalarida ham akkreditatsiya, kredit-modul tizimi va xalqaro malaka oshirish imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi. Bu esa nafaqat talaba, balki davlat va ta’lim muassasasining ham jadal rivojlanishiga olib keladi. Zamonaviy tendensiyalar. Bugungi kunda raqamli ta’limning kengayishi onlayn kurslar va masofaviy ta’limni rivojlantirib, “hayot davomida o‘qish” (lifelong learning) g‘oyasini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oilaviy yoki ish faoliyatida band bo‘lgan qizlar va ayollar uchun onlayn kurslar katta imkoniyatdir. Ular uchun bu shakl oflayn ta’limga qaraganda qulayroq va samaraliroqdir. IT sohasining roli. Raqamlashtirish davrida IT sohasining ahamiyati yanada oshdi. Bu sohada startaplar, loyihalar va turli dasturlar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, dastlabki startap loyihalari sifatida Yandex, Telegram, Payme kabi xizmatlarni eslatish mumkin. Inkubatorlar - yangi biznes g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydigan markazlar, acceleratorlar esa startaplarni tez rivojlantirishga xizmat qiladi. Hackathonlar yoshlarning qisqa muddatda yangi IT yechimlar yaratishiga imkon beruvchi muhim maydonlardir.

Fintech bozori. Moliya va texnologiya integratsiyasi sifatida fintech bozori raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda Payme, Click, Apelsin, PayPal, Google Pay kabi to‘lov tizimlari hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Bu tizimlar nafaqat shaharlarda, balki chekka hududlarda ham joriy qilinsa, to‘lov tizimlari, ta’lim, tibbiyot va boshqa xizmatlar keng qamrovli raqamlashtirilgan muhitda faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanayotgan va raqamlashtirilayotgan davlatda har bir sohani izchil rivojlantirish, ta’lim va texnologiyalarni uyg‘un holda rivojlantirish zarur. Kelajak yoshlarini texnologiyalar bilan hamnafas qilib tarbiyalash, o‘qituvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish bizning eng muhim vazifamizdir. Chunki raqamlashtirish nafaqat qulaylik, balki taraqqiyot va istiqbolning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. To‘xtayev B. Innovatsion pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Abduqodirov A. A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimida. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
5. Mavlonova R. A., Raxmatova M. Pedagogik innovatsiyalar va axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Qodirova N. Masofaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni. // *Ta’lim innovatsiyalari jurnali*, 2022, №3, 45–49-betlar.